



## ABDULLA QODIRIYGA BO'LGAN EHTIROM!

Mo'riboyeva Nafosat O'kam qizi<sup>1</sup>

Toshkent davlat texnika universiteti talabasi,

Baxriddinov Og'abek Nizomiddin o'g'li<sup>2</sup>

Toshkent davlat texnika universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Usmonova Manzura Isakovna

E-mail: baxriddinov0720@gmail.com.

<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02-p1-21>

### ARTICLE INFO

Received: 26<sup>th</sup> January 2023

Accepted: 06<sup>th</sup> February 2023

Online: 07<sup>th</sup> February 2023

### KEY WORDS

Abdulla Qodiriy, millat qahramoni, adib, ulug' siymo, adiblar xiyoboni.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada romanchiligimiz asoschilaridan bo'lgan Abdulla Qodiriy to'g'risida gap boradi. Ul zotning siymosiga bugungi kunda qaratilayotgan e'tibor esa alohida e'tirof etilgan.*

Romanchiligimiz bolgan Abdulla Qodiriyga mustaqillik yillarida juda ham ko'p etibor berildi masalan: Abdulla Qodiriy o'zi yashab o'sgan uyi Abdulla Qodiriy uy muziyi qilindi va yana adiblar xiyobonida Abdulla Qodiriyga atab haykal qo'yildi bu esa bizning buyuk adibimiz uchun katta etibor desak mubolag'a bo'lmaydi. Abdulla Qodiriy qaytmagan xovli.

Toshkentning markazida shunday maxalla bor uni Parijning 13-kvartaliga qiyoslash mumkin. O'sha ko'chada oq tunikalar bilan o'ralgan Samarqand darvoza maxallasining ichkarisida millatimizning buyuk adibi, qahramoni Abdulla Qodiriyning xovlisi bor. Ha, bir qator ko'chalar, bog'lar, maktablar, kutubxona, mahalla va oliy bilimgo'hlari uning tabarruk nomi bilan yuritiladi.

Uy-muzey poytaxtning Shayxontohur tumanida joylashtirildi. Uy-muzey bilan birga Abdulla Qodiriyning memorial muzeyi ham tashkil etiladi. Olmazor tumanidagi Abdulla Qodiriy nomidagi istirohat bog'i hududida joylashgan kutubxona va bino «Turon» axborot-kutubxona markaziga operativ boshqaruv huquqi asosida tekin beriladi.

Yuqorida aytib o'tilgan ob'yektlarni saqlash xarajatlari mahalliy byudjetlar mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

Milliy axborot agentligi, Milliy teleradiokompaniya va boshqa OAVlarga muzeylar va kutubxonalar faoliyatini keng yoritish tavsiya etilgan.

Adiblar xiyoboni – ma'naviyat maskani

Adabiyot – har bir xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini bog'lovchi, ta'sir kuchiga ega muhim vositadir. Unda har bir millatning madaniyati, urf-odati, dunyoqarashi, ma'naviyati aks etadi. Shu bois, yurtimizda adabiyot va san'at sohasiga oid qator islohotlar olib borilmoqda. Xususan, 2020-yil 26-maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi" farmoni va shu yilning 24-avgust sanasida "Atoqli adiblar va mutafakkirlar ijodiy merosini yoshlar o'rtasida targ'ib qilish hamda adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora-



tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 502-sonli qarori yuqoridagi fikrimizning yaqqol isboti bo'la oladi.

Bundan 5 yil oldin ana shunday maqsadlarga xizmat qiluvchi yana bir yirik loyihaga qo'l urilgan edi. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 18-aprelda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ida Adiblar xiyobonini tashkil etish bo'yicha qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra, xiyobonning me'moriy-g'oyaviy loyihasi ishlab chiqildi. Majmuaviy tarzda olib borilgan bunyodkorlik ishlari natijasida poytaxtimiz markazidagi Adiblar xiyobonining yaxlit me'moriy ansambli yaratildi. Qisqa muddatda Alisher Navoiy haykali yonida 23 ta atoqli shoir va mutafakkirlarning haykallari mantiqiy yechim asosida qad rostladi. O'tgan vaqt mobaynida xiyobon ko'rinishini yanada boyitish va adiblar xotirasini e'zozlash maqsadida Bobur, Ogahiy, Berdaq, Muqimiy, Furqat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, To'lepbergen Qayipbergenov, Ibroyim Yusupov, Aleksandr Faynberg singari atoqli namoyandalar haykallari qaytadan yangilandi.

2020-yilning 20-mayida yurtboshimizning Adiblar xiyoboniga navbatdagi tashrifida o'tgan yillar davomidagi obodonlashtirish ishlari ko'zdan kechirildi. Yozuvchi-shoirlar, ziyolilar bilan uchrashuvda milliy adabiyotni rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor, galdagi muhim vazifalar haqida so'z bordi. Ushbu uchrashuvda Prezident Shavkat Mirziyoyev "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz", degan edilar.

*«Bitta narsani hammamiz bilishimiz kerak. Adabiyotsiz iqtisodiyot ham, ma'naviyat ham bo'lmaydi. O'zini hurmat qilgan inson Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"ini bir emas, bir necha marta o'qigan bo'ladi. Nimaga desangiz, uni o'qigan odam hech qachon oilaga xiyonat qilmaydi, kerak bo'lsa vatanga xiyonat qilmaydi.»*

### **Shavkat Mirziyoyev**

Davlatimiz tomonidan ushbu buyuk insonlarga xususan ramonchaligimiz asoschisi bo'lgan insonga shu qadar etibor berilayotgan ekan, nega biz yoshlar bu buyuk insonni o'rganmasligimiz kerak ekan!? Abdulla Qodiriy kabi millatni sevuvchi buyuk bobolarimiz bor ekan ularni eslashda ularni o'rganishda hech qachon charchamaymiz, Abdulla Qodiriy aytganidek: agarda meni bir kishi o'qisa yoki o'rgansa men hech qachon o'lmayman deb biz yoshlarga nisbatan chuqur istirob va umid bilan aytganlar.